

## MAXTUMQULI SHE'RLARI TAHLILI

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

4-bosqich 22.01 guruh

**Chorshanbiyeva Shohsanam**

**ANNOTATSIYA:** Maxtumquli turkman xalqining mashhur shoiri va mutafakkiri bo'lib, uning ijodi xalq hayoti, urf-odatlarini va milliy qadriyatlarni chuqur ifodalaydi. Shoirning lirik she'rlari birlik, totuvlik va ma'naviy kamolot g'oyalarini targ'ib qiladi. Baytlarida oddiy xalq hayotidan olingan timsollar, falsafiy fikrlar va xalq og'zaki ijodiga yaqin uslub namoyon bo'ladi. Shu jihatlar Maxtumqulining ijodini turkman va boshqa turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar ma'naviy merosining ajralmas qismiga aylantiradi.

**KALIT SO'ZLAR:** Maxtumquli, turkman shoiri, lirik she'riyat, xalq og'zaki ijodi, birlik, totuvlik, ma'naviy meros, pand-nasihat, xalq qadriyatlari, bayt tahlili.

**ANNOTATION:** Makhtumkuli is a famous poet and thinker of the Turkmen people, and his work deeply expresses the people's life, traditions and national values. The poet's lyric poems promote the ideas of unity, harmony and spiritual perfection. Symbols taken from ordinary people's life, philosophical thoughts and a style close to folk oral creativity are shown in the verses. These aspects make Makhtumkuli's work an integral part of the spiritual heritage of Turkmen and other Turkic peoples, including Uzbeks.

**KEY WORDS:** Makhtumquli, Turkmen poet, lyric poetry, folk oral creativity, unity, harmony, spiritual heritage, advice, folk values, verse analysis.

**АННОТАЦИЯ:** Махтумкули — известный поэт и мыслитель туркменского народа, и его творчество глубоко выражает быт, традиции и национальные ценности народа. Лирические стихи поэта пропагандируют идеи единства, гармонии и духовной зрелости. В стихах показаны символы, взятые из жизни простых людей,

философские мысли и стиль, близкий народному устному творчеству. Эти аспекты делают творчество Махтумкули неотъемлемой частью духовного наследия туркмен и других тюркских народов, в том числе узбеков.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Махтумкули, туркменский поэт, лирика, народное устное творчество, единство, гармония, духовное наследие, совет, народные ценности, стихотворный анализ.

## KIRISH QISM

Maxtumquli turkman xalqining yirik shoiri va ma'rifatparvar mutafakkirlaridan biridir. Uning otasi Davlatmamat Ozodiy (1700–1760) ham ijodkor bo'lib, Maxtumqulining dastlabki savod chiqargan ustozlari sanaladi. Shoir avval oilasida, so'ngra qishloq maktabida Niyozsolih mulla qo'lida ta'lim olgan. U o'z bilimini Xalach yaqinidagi Qiziloyoq qishlog'idagi Idrisbobo madrasasida chuqurlashtirgan, keyinchalik esa Buxorodagi Ko'kaldosh hamda Xivadagi Shergo'zi madrasalarida davom ettirgan. Maxtumquli Nizomiy, Firdavsiy, Fuzuliy va Navoiy kabi mashhur adiblar ijodidan katta ilhom olgan. Shoir zargarlik bilan ham shug'ullangan va Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand, Turkiston kabi ko'plab mamlakatlarda bo'lgan. Maxtumqulining shaxsiy hayoti haqida turli rivoyatlar mavjud. Tadqiqotchilar uning yoshligidan xolasining qizi Menglixonni sevganini ta'kidlashadi. Biroq otasi va ikki akasining vafoti tufayli oilaning og'ir moddiy ahvolga tushib qolishi Maxtumqulining qizga atalgan qalin pulini bera olmasligiga sabab bo'lgan. Shu bois, Menglixonning akalari uning noroziligiga qaramay, uni boshqa kishiga turmushga bergan. Shoir lirik janrda ko'plab she'rlar, lirikepik asarlar, g'azal va muhammaslar yaratgan. Bizgacha uning falsafiy va pand-nasihat ruhidagi o'n mingdan ortiq she'rlari yetib kelgan. Maxtumquli ijodida turkman xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, davrning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari hamda shoirning ichki kechinmalari chuqur aks etadi. «Bo'lmasa», «Kelgay», «Naylayin», «Yetmas», «Bular», «Ketdi zamona» kabi asarlarda xalqni birlikka chorlovchi g'oyalar ustuvor o'rin tutgan. Shoirning ishqiy lirikasida ohangdorlik, ruhiy noziklik va falsafiy teranlik yaqqol namoyon bo'ladi. Hayot, o'lim, insoniyat, ma'naviyat va odob-axloq mavzulari yoritilgan

ko‘plab she‘rlarida islomiy qarashlar, tasavvuf falsafasi kuchli seziladi. Ko‘plab she‘rlarida Qur‘on oyatlari va hadis mazmunlari aks etgan. Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi ulug‘ zotlar, hamda payg‘ambarlar nomi ham tez-tez tilga olinadi. Allohga munojot, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari uning ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biridir («Riyodan yo Rab», «Sochdi Muhammad», «Yo Rasul» va boshqalar).

**ASOSIY QISM:** Maxtumqulining ijodiy uslubi xalq og‘zaki ijodiga nihoyatda yaqin bo‘lib, u turkman xalqining maqol-matal va hikmatli so‘zlarini badiiy adabiyotga olib kirishda katta hissa qo‘shgan. Shoirning mazmundor misralari keyinchalik turkman millatining dono so‘zlari, aforizmlari sifatida qadrlangan. U haqidagi ilmiy tadqiqotlar Yevropa, rus sharqshunoslari hamda turkman va o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan olib borilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodining Maxtumquli tafakkuriga ta’siri, shuningdek, boshqa adabiy ta’sirlar masalalari alohida o‘rganilgan. S. Qoriyevning “Navoiy va Maxtumquli”, “Maxtumquli va Islom shoir”, “Maxtumquli she‘rlari asosida yaratilgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari” kabi ishlar bunga misol bo‘la oladi. Shoirning “Namasan”, “Ayrildim”, “Oshiq bo‘lmisham”, “Ustodingdan ayrilma”, “Ko‘ring” singari she‘rlari Komiljon Otaniyozov, Bobomurod Hamdamov va Ortiq Otajonov tomonidan kuyga solingan. Maxtumqulining asarlari butun turkiy xalqning, jumladan o‘zbeklarning ham ma’naviy merosiga aylangan. Uzoq yillar davomida she‘rlari bir necha bor o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etilgan hamda hofizlar tomonidan kuy shakliga keltirib ijro etilgan. Shoir hayoti va ijodi asosida kinofilmlar, spektakllar va badiiy asarlar yaratilgan. Uning she‘rlari zamonlar o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmay, aksincha, yanada ko‘proq qadrlanib kelayotganining sababi — undagi pand-nasihatlarining inson qalbiga chuqur singishi, ruhiy tasalli berishi, ilhom bag‘ishlashi bilan bog‘liq. Maxtumquli misralari g‘ussa va dardga botgan ko‘ngillarga malham bo‘ladi, holdan toygan ruhga quvvat beradi, tushkun kayfiyatni ko‘taradi. Shu bois turkman xalqi og‘ir damlarda uning she‘rlarini ruhiy shifobaxsh manba, dardlardan xalos etuvchi ma’naviy tabibdek ko‘radi. Shoirning asarlari o‘zining tiniqligi, ruhiy musaffoligi bilan tog‘ bag‘ridan otilib chiqqan buloq suvini eslatadi; gul-u rayhonli bog‘larning muattar hidi kabi qalbga zavq baxsh etadi. Uning

she'rlari dutorning nozik va dilni larzaga soluvchi ohangidek ta'sirli bo'lib, o'quvchini hayajonga soladi. Maxtumduli yashagan davr murakkab, notinch bo'lgan, ammo u o'sha davrning ruhiy muhitini teran anglab, jamiyatdagi voqealar girdobida yetuk ma'naviy shaxs sifatida hayot kechirgan. U insoniyat to'plagan dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan, tasavvuf falsafasiga chuqur kirgan, komil inson darajasiga yetgan mutafakkir edi. Maxtumduli butun umrini insoniyat farovonligi yo'lida bag'ishlab, ayniqsa, o'sha davrlarda tarqoq yashagan, mustaqil davlatga ega bo'lmagan turkman xalqini birlashishga, o'zaro totuvlikka, milliy birlikni mustahkamlashga chorlagan. Uning "Turkmanning..." deb boshlanuvchi she'rlarida ham aynan shu da'vatkor ruh mujassam.

Ko'ngillar, yuraklar bir bo'la boshlar,

Uyushsa, eriydi tuproqlar, toshlar,

Bir sufrada tayyor qilingan oshlar,

Yuksaladi baxt-iqboli turkmanning.

Maxtumdulining ushbu bayti asosan birlik va totuvlik g'oyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda xalqning baxtu-saodati uning o'zaro hamjihat bo'lishiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shoir "Ko'ngillar, yuraklar bir bo'la boshlar" misrasi orqali millatning ichki birligiga, qalb va niyatlar uyg'unligiga ishora qiladi. Uning fikricha, xalqning kuchi aynan ko'ngillarning bir yoqlama harakati, o'zaro ishonch va mehrda namoyon bo'ladi. Shundan keyingi "Uyushsa, eriydi tuproqlar, toshlar" misrasi badiiy bo'rtirish asosida berilgan bo'lib, birlikda harakat qilgan xalq hatto eng og'ir to'siqlarni ham yengib o'tishini anglatadi. Tosh va tuproq bu yerda turli qiyinchiliklar, hayotdagi to'siqlar ramzi sifatida qo'llanadi. "Bir sufrada tayyor qilingan oshlar" misrasi esa turkman xalqiga xos qadriyatlar — mehmondo'stlik, umumiy dasturxon, birga ovqatlanish an'alarini eslatadi. Bir dasturxon atrofida yig'ilgan xalq o'rtasida mehr, totuvlik va o'zaro hurmat kuchayadi. Shoirning yakuniy "Yuksaladi baxt-iqboli turkmanning" degan xulosasi esa baytning asosiy g'oyasini ochadi: turkman xalqining yorug' kelajagi, farovonligi, baxti — faqatgina milliy birlik va birdamlik bilan bog'liq. She'r da'vatkor ruhda yozilgan bo'lib, unda birlikning

qudrati, odamlar o'rtasidagi mehr-oqibatning qadri yuksak badiiy timsollar orqali ifodalangan.

**XULOSA:** Maxtumquli turkman xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri bo'lib, uning ijodi xalq hayoti, urf-odatlari va milliy qadriyatlarni chuqur ifodalaydi. Shoir ko'p she'rlarida birlik, totuvlik, mehr-oqibat va ma'naviy kamolot g'oyalarini targ'ib qilgan. Baytlarida oddiy xalq hayotidan olingan timsollar, xalq og'zaki ijodiga yaqin uslub va falsafiy fikrlar mujassam. Masalan, "Ko'ngillar, yuraklar bir bo'la boshlar..." misralarida u xalqning birdamligi orqali baxt va farovonlikka erishishini ta'kidlaydi. Maxtumqulining she'rlari davrlar o'tib ham ahamiyatini yo'qotmay, o'quvchi qalbini ilhomlantiradi, ruhiy tasalli va ma'naviy quvvat beradi. Shu jihatlari bilan u nafaqat turkman, balki butun turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar ijodiy merosining ajralmas qismidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Turkiy xalqlar adabiyoti. Darslik. E. Quliyev T.Renessans prans, 2022-318-bet
2. Ziyoz.uz com
3. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARINING
4. MAXTUMQULI SHE'RLARIDA FALSAFIYLIK G'OYALARI. Xabibullayeva Nigora. Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi